

INTEGRATSIYALASHGAN NEMIS TILI DARSINING ZARURIYATI VA AHAMIYATI

Baxridinova Mutabarxon Adaxamovna
AnDU doktoranti
bahriddinovamutabar@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada integratsiyaning afzalliklari, uning talabalarga qanday ijobiy ta'sir etishi, ikkinchi horijiy til o'qitilayotgan integratsion darslarda til o'qituvchilarini integratsiyalashgan ta'lim berish ko'nikmalarini yanada mahorat bilan o'tishi uchun chet tili darsidagi integratsiya holatiga urg'u beriladi va misollar keltiriladi.

Kalit so'zlar: Ta'limda integratsiya, integrativ dars, fanlararo aloqadorlik, kreativ yondoshuv, til kompetensiyalari, tilda erkin muloqot.

Oliy ta'limni modernizatsiya qilishning zamonaviy jarayonlari ta'limga kirib kelgan ayni bir paytda chet tili o'quv jarayonlarida integrallashgan holda o'qitishga katta ahamiyat berilmoqda. So'nggi yillarda faol muhokama qilinayotgan yondashuvlar integratsiyalashgan yondashuv bo'lib, bu o'quv jarayonida vaqt sarfini optimallashtirish va undan foydalanish imkonini beradi. Chet tili ta'limi jarayonida shakllanadigan kompetensiyalar o'qib tushunish, gapirish, yozish va tinglab tushunish majmui integratsiyalashgan o'qitishda birlashadi.

Xorijiy olimlarning ilmiy qarashlarida, aksincha, aniq o'quv fanlararo integratsiya eng faol muhokama qilingan bo'lib, u birinchi navbatda, "*integratsiya*" atamasining talqiniga qaraydigan bolsak, izohli lug'atlarga ko'ra, u lotincha so'zdan kelib chiqqan integer (to'liq, integer) va ma'no bir butunlikka birlashish, ba'zi elementlarning birligi degan ma'noni anglatadi.

Ta'limda integratsiyada esa o'quv mazmuni bilan bog'liq bo'lgan integral o'quv turlarining turlichaligini ko'ramiz. Integratsiyani ham o'ziga xos bir qancha turlari mavjud. Biz maqolamizda faqat chet tili darsidagi integratsiya holatiga batafsil to'xtalmoqchimiz. Nemis tilini ikkinchi til sifatida tilga yo'naltirilgan oliygohlarda o'qitiladi va biz buni nemis tili o'qituvchisi sifatida amalda bajarib kelmoqdamiz.

Integratsiyalashgan nemis tili darslarida nemis tilini ikkinchi til sifatida targ'ib qilish asosiy maqsad hisoblanadi.

Nemis tili darslarida til strukturalaridan tashqari talabalarning ijodkorlik qobiliyatini ham rivojlantirish lozim. Ularni rolli oyinlar orqali turli xil ish joylarida nemis tilida muomala qilishga o'rgatish bugungi davrda eng dolzarb masalaga aylandi. Nemis tilini egallash – til o'rganish kontekstida kechadigan murakkab, qadamma-qadam jarayon. Asosiy grammatik va kommunikativ strukturalar va so'zlarning ma'nosini bilish oliygohga kirishdan oldin o'quvchi sifatida o'zlashtirilgan, albatta. Endilikda esa so'z boyligiga koproq ahamiyat beriladi, bunda asosan lingvistik o'yin-kulgi usullaridan foydalaniladi.

Belke integrativ nemis ta'limoti ma'nosidagi integratsiyani shunday belgilaydi:

1. Nemis tili bilan talabalarning ikkinchi til sifatida, talabalarni esa nemis tili bilan o'z ona tilisi bilan integratsiyasi deb qarashimiz kerak [2,I.34]. Talabalarga chet tili darslarida ularni o'zbek tili sohiblari bo'lishiga qaramasdan ularga jozibador, qiziqarli va tushunarli lingvistik kirish muhiti yaratib berishimiz kerak, suhbat jarayoni esa hayotiy kalimalardan iborat bolishi kerak, talabalarni kognitiv jihatdan qiynab qo'ymaslik kerak.

2. Tilning kelib chiqishiga integratsiyalashuv amalga oshirilishi kerak

3. Lingvistik hodisalarning vaziyatli kontekstga singdirilishi, ya'ni amaliyot konsepsiyasiga integrallashuvi talab etiladi.

4. Nemis tili darsini loyihalashtirishda kompetensiyaning barcha yo'nalishlarini qamrab olishga erishish muhim.

5. Ona-tili o'qitishning yaxlit usullari bilan ikkinchi til o'qitishning sintaktik usullarini qo'llagan holda til o'rganish va tilga o'qitishda matnlarga kreativ yondashuv, madaniyatlararo o'quv va til o'qitishning loyihaviy yo'naltirilgan integratsiyasini hisobga olish, yozish kompetensiyasini yanada rivojlantirishda oddiy ko'chirib yozishdan matni ijodiy ishlab chiqarishga yetkazish, buning uchun esa adabiyot bilan samarali shug'ullanish hamda nemis tilidagi adabiy-lingvistik terminlarni talabalar ongiga singdirib borish kerak.

Bartnitzkiy esa kengroq, hayotga yo'naltirilgan va kommunikativ yondashuvli integratsiyalashgan chet tili darsi modelini afzal deb biladi va quyidagilarni tavsiya etadi. U ko'p tilli darslarni til muhiti hukm surayotgan didaktikaga birlashtirgan holda integratsiya qilish juda muhim deb hisoblaydi. [1, B.14] Uning fikricha, tilda erkin muloqotni asosiy maqsad va boshlang'ich nuqta qilib olgan integrativ dars asosan quyidagi 5 ta tamoyilga asoslanadi:

- talabalar og'zaki nutqiga katta ahamiyat berish
- darsda asosan autentik vaziyatlarga asoslanish
- talabalar guruhida ijtimoiylashuvni yolga qoyish
- o'quv mazmunining ahamiyati va
- til bilish kompetensiyasini talab etish

Talabalarda tilni rivojlantirishga xizmat qiluvchi chet tili darsi ulardagi til bilish kompetensiyalarini boricha qabul qiladi va qo'llab-quvvatlaydi va talabalarni o'z ona tilisining kelib chiqishini ham hisobga oladi va ikkinchi chet tiliga qo'yilgan talablar asosida yangi til bilan tanishish imkonini beradi. Bundan tashqari, integratsiyalashgan til darsi, avvalombor, talabalar tajriba dunyosini kengaytirishga xizmat qilishi kerak, bunday darslar yordamida ular o'zlarini real va madaniy tajribalar bilan o'rtoqlasha olishlari, natijada dars ishtirokchilaridan insoniyatning hozirgi va kelajakdagi global muammolarini tasvirlay olishlari talab etiladi.

Integratsiyalashgan til darsining vazifasi talabalarning ishlash kompetensiyasini, ijtimoiy kompetensiyasini va o'zlik kompetensiyalarini rivojlantirishdan iborat bo'lib, ularni o'z hayot dunyosiga katta qiziqish, izlanish, muloqotga boy hamda mas'uliyat bilan yondashishlariga yo'naltiradi.

Bunday darsning boshlang'ich nuqtasi faqat ilmiy emas, balki talabalarni hayot dunyosini o'ziga xos jihatlaridan iborat bo'lib, ularning ehtiyojlari va fanga bo'lgan qiziqishlarini fan mazmuni bilan bog'lash uchun xizmat qilib, ularni didaktik tushunchasini kengaytiradi.

Ta'lim maskanlarida ikki va undan ortiq chet tillarining o'qitilishi madaniy o'ziga xosliklarga yol ochadi, madaniy tushunchalarni mazmun-mohiyati tilda qanday aks etishi faqat chet tili integratsiyalashgan darslarida ochib beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Literatur: Bartnitzky, H. (2000): Sprachunterricht heute, Cornelsen Verlag Scriptor, Berlin
Belke, G. (2007): Poesie und Grammatik – Kreativer Umgang mit Texten im Deutschunterricht mehrsprachiger Lerngruppen, Schneider Verlag Hohengehren

2.Интегрированное обучение иностранным языкам и профессиональным дисциплинам. Опыт российских вузов / Н.И. Алмазова, Т.А. Баранова, Е.К.

коллективная монография; под ред. Л.П. Халяпиной. СПб.: Изд-во Политехн. ун-та, 2018. 380 с. 3. Чикризова, К.В. Разработка дина.